

**O‘ZBEKISTONDA KO‘P YILLARDAN BUYON SOLIQ
MA‘MURCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH
SARHISOBI**

*O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi
Quryozov Sardorbek Sharifboevich*

Annotatsiya: Mazkur maqolada mamlakatda soliq sohalarida ko‘p yillardan buyon soliq ma‘murchiligini takomillashtirish bo‘yicha rivojlantirish sarhisobi, biznes doiralarning ishonchini yanada mustahkamlashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlarni takomillashtirishda soliq organi o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Shu bilan birga, O‘zbekiston soliq tizimida amalga oshirilayotgan ayrim muhim islohotlar o‘rganilib, uni qo‘llash bo‘yicha xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: soliq siyosati, soliq tushumlari, tahlila-tahlil, xavflar, samaradorlik, raqamli platforma, usullar va vositalar, tahlil, optimallashtirish, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

Kirish

Soliq siyosati strategiyasi orqali inklyuziv o‘shish sur‘atlariga erishish, soliq tizimida daromadlarni oshirish qobiliyatini oshirish hamda davlat xarajatlarining barqarorligini ta‘minlash, rivojlanayotgan davlatlarning fiskal siyosatini kuchaytirish, adolatli va inklyuziv soliq tizimini joriy etish, soliq siyosati strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishda raqamli platformalardan samarali foydalanish kabilar bu boradagi ilmiy tadqiqot ishlarining ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

O‘zbekiston soliq tizimida muhim islohotlar amalga oshirildi. Ushbu islohotlar ko‘pincha iqtisodiy o‘shishni ta‘minlaydigan, investitsiyalarni rag‘batlantiradigan va davlat funksiyalari uchun yetarli daromad yig‘ilishini ta‘minlaydigan yanada samarali, shaffof va adolatli soliq tuzilmasini yaratish zarurati bilan bog‘liq.

O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi bosqichida yangi mazmundagi strategik maqsadlarni belgilab beruvchi soliq siyosatini shakllantirish

va amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Soliq to'lovchilar faoliyatini rag'batlantirish, soliq yukini kamaytirib borish, adolatli soliq tamoyillariga asoslangan soliq tizimini yanada rivojlantirib borish yo'nalishida sezilarli islohotlar amalga oshirish bu boradagi muhim vazifalardan hisoblanadi. Shu bilan birga bunday soliq siyosatining samaradorligini ta'minlashda, hali o'z yechimini kutayotgan ilmiy-amaliy muammolar ham mavjud.

Xususan, 2016-2023-yillarda amalga oshirilgan soliq ma'murchiligi islohotlarining real natijalari:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbuslari bilan soliq tizimini yaratishga qaratilgan soliq islohotlari iqtisodiy, huquqiy jihatdan har tomonlama asoslangan hamda soliq to'lovchilar uchun qulay va manfaatli ekanligini ko'rsatdi.

1. Bugungi kunga kelib, uch yildan ortiq ishlayotgan korxonalar ulushi 76 foizni tashkil etdi va ilk bor 300 mingtaga yetdi. Yana 100 mingdan ziyod shunday yakka tartibdagi tadbirkorlar mavjud.

2. Tadbirkorlarning tovar aylanmasi o'tgan yilga nisbatan 25 foizga ko'payib, 986 trillion so'mga yetdi. Yillik aylanmasi 10 milliard so'mdan 100 milliard so'mgacha bo'lgan o'rta korxonalar 2 karra ko'paydi. Aylanmasi 100 milliard so'mdan ortiq yirik korxonalar esa 2 ming 200 tadan oshdi. Bu ham – o'tgan yilga nisbatan 2 barobar ko'p bo'ldi.

3. Soliq, bank, moliya, butun iqtisodiyot kompleksini “mahallabay” va “mijozbay” ishlashga o'rgatganimiz natijasida oldin zarar bilan ishlagan 16 ming korxonalar yarim yilda 6,5 trillion so'm foydaga chiqdi.

4. Bugungi kunda 100 tadan ortiq ishchisi bor korxonalar 3 mingga yaqinlashib, ulardagi ish o'rnini bir yilda 440 mingga ko'paydi. Ushbu korxonalardagi ishchilar soni 1,7 millionga yetdi.

5. Tadbirkorlik reytingida “A” va “B” – yaxshi toifaga kiruvchi korxonalar 91 mingga ko'paydi, yana 170 ming korxonalar “D” – eng yomon toifadan chiqarildi.

6. Soliq tekshiruvlari o'tgan yilga nisbatan 2 karra – 85 mingtadan 48 mingtaga, jumladan, kameral tekshiruvlar 3 karra – 38 mingtadan 12 mingtaga qisqardi. Shu davrda yirik soliq to'lovchilar tushumlari 10 foizga, viloyat

darajasidagi korxonalarda 25 foizga, tuman tadbirkorlari to'layotgan soliqlar 40 foizga o'sdi.

7. Tadbirkorlik sub'ektlari va investorlar faoliyatini soliq sohasida kafolatlashning xuquqiy asosi yaratilib, yangi soliq konsepsiyasi, Soliq kodeksi va 141 ta qonun, farmon, qaror va boshqa me'yoriy hujjatlar qabul qilindi (2016-yilgacha sohada qabul qilingan hujjatlarga nisbatan 2 barobarga ko'p).

8. Teng raqobat sharoitini yaratish maqsadida 89 ta turli soliq imtiyozlari bekor qilindi. Individual imtiyozlar berish amaliyotidan voz kechildi.

9. Soliq yukini keskin pasaytirish maqsadida- tovar aylanmasidan 3,2 foiz miqdorda olinadigan ajratmalardan voz kechildi, mulk solig'i stavkasi 5 foizdan 1,5 foizga pasaytirildi, QQS stavkasi 20 foizdan 12 foizga va yagona ijtimoiy to'lov stavkalari 25 foizdan 12 foizga tushirildi. Soliq turlari 13 tadan 9 taga kamaytirildi va ish haqiga soliq yuki qariyb 2 baravar pasaydi.

Solishtirish uchun: Yevropa davlatlari Shvesiyada daromad solig'i stavkasi 56,9%, Angliyada 20-45%, Daniyada 55,6%, Ispaniyada 45%, QQS stavkasi Daniya, Norvegiya, Shvesiyada — 25 %, Finlyandiyada — 24%, Vengriyada — 27 %, Rossiya, Belarus va Ukrainada — 20 %.

10. Tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan umumiy tarzda berilgan yengilliklar va imtiyozlar natijasida ularning ixtiyorida birgina 2023-yilni o'zida jami 127,1 trln.so'm, shundan soliq imtiyozlaridan 69,7 trln so'm mablag' qoldi (respublikaning 2016-yildagi soliq tushumlari daromadidan 4,2 baravarga ko'p).

11. Soliq yukining teng taqsimlanishi natijasida QQS to'lovchilari soni 17,3 baravarga, foyda solig'i to'lovchilari 15,2 baravarga, suv solig'i to'lovchilari 36,5 baravarga va yer solig'i to'lovchilari 38 baravarga ko'paydi (Xorijiy sarmoyadorlar ulushida tashkil etilgan korxonalar soni 4-yilda 2,6 baravarga ko'paydi va 13,2 mingtaga yetdi. Transxalqaro kompaniyalardan Google, Apple, Samsung, Huawei, Facebook, Yandeks kabi 26 tadan ortiq internet-kompaniyalari O'zbekistondagi faoliyatlari bo'yicha soliq to'lovchi sifatida ro'yxatdan o'tdi).

12. Soliq to'lovchilarga uzluksiz xizmat ko'rsatish va zamonaviy soliq ma'murchiligi chaqiriqlariga javob beradigan tizim yaratish maqsadida, Ma'lumotlar bazasi 24 terrabaytdan (tb) 484 tb.ga yetkazildi yoki 20 baravarga oshdi.

(Bu o'z navbatida, soliq to'lovchilarga (i) ro'yxatdan o'tish, (ii) soliq rejimini tanlash, (iii) budget bilan munosabatlarini onlayn kuzatish, (iv) hisobotlarni shakllantirish va (v) topshirish, (vi) soliqlarni to'lash, (vii) maslahat olish va (viii) yozishmalarni shaxsiy kabineti orqali dunyoning istalgan burchagidan soliq majburiyatlarini elektron tarzda bajarish imkoniyatini berdi)

13. Yashirin iqtisodiyotni jilovlash hisobiga soliq bazasini kengaytirish maqsadida, zamonaviy soliq ma'murchilining yangi instrumentlari - Elektron hisobvara-q-fakturalari, onlayn nazorat kassa mashinalaridan foydalanish, tovarlarni markirovkalash, elektron shartnoma tizimlari joriy etildi. Natijada, 2016-yilda YaIM (VVP) yashirin iqtisodiyotning ulushi 59 foiz bo'lgan bo'lsa, 2023-yilga kelib 19 foiz punktga pasaytirildi yoki 40 foizga tushirildi. Bu o'z navbatida soliq tushumlarining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, 2019-yilga nisbatan 2023-yilda tushumlar 1,8 baravarga o'sdi.

14. Soliqlarni ixtiyoriy to'lash darajasi 83 foizdan 97 foizga chiqarildi.

15. Tashqi mehnat migratsiyasi va o'zini o'zi ish bilan band qilgan fuqarolarni ijtimoiy himoyalash instituti yaratilib, rasmiy ro'yxatdan o'tganlar soni qariyb 4 mln.ga yetdi.

Ma'lumot uchun: 2024-yil 1-oktabr holatiga – o'zini o'zi band qilgan shaxslar **4 mln nafardan oshdi**. Bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan 86,8 % ga (1,9 mln nafar) ortiq.

O'sish ko'rsatkichi eng yuqori sohalar (01.10.2023-yilga nisbatan):

- maishiy xizmatlar – **133,6 % (987,4 mingta);**
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish – **113,5 % (203,5 mingta);**
- axborot-kommunikatsiya – **96,7 % (51,6 mingta).**

16. Soliq islohotlari nufuzli xalqaro institutlar tomonidan qayd etilib, «Doing Business» «Soliqqa tortish» reytingida 2016-yilga (141 o‘rin) nisbatan 24,6 punktga ko‘tarilib, 69-o‘ringa chiqildi.

II. Sohada mavjud kamchilik (hatar) va muammolar

1. Yashirin iqtisodiyotning ulushi 2023 -yilda YaIM nisbatan 40 foiz (320 trln.so‘m) darajasida baholanib, uning bosqichma-bosqich qisqartirib borilishi yaqin kelajakda budgetga qo‘shimcha 54,4 trln.so‘m miqdorida rezervlarni jalb etish imkoniyatini berishi mumkin (320 trln.so‘m x 17% soliq yuki);

2. Tovarlarning (xizmatlarning) e‘lon qilingan va haqiqiy sotish narxi o‘rtasidagi farq o‘rtacha 30-50 foizni tashkil qilib, ushbu miqdorda soliq bazasiga kirmasdan qolmoqda. Bu borada soliq nazoratining ta‘sir choralari yetarli emas;

3. Soliqdan qochish maqsadida, elektron to‘lov kanallari (Payme, Click) orqali savdo pullarini plastik kartochkalarga ko‘chirish (P2P) amaliyoti keng uchramoqda. Jumladan, 1 kishi uchun yaqin qarindoshligi bo‘lmagan fuqarolarga oyiga 20 dan ortiq pul o‘tkazmalari hisob-kitobi bilan 9 575 nafar shaxsning plastik kartalariga jami 2 339,4 mlrd. so‘m tushganligi aniqlandi;

4. Savdo ob‘ektlarining qariyb 95 foizida onlayn NKM o‘rnatilgan bo‘lsada, ularni ishlatish (chek urish) davriyligi (chastotasi) past darajada qolib, savdo hajmini yashirish davom etmoqda.

Amaliyot hamda chet el tajribasi bu borada faqatgina soliq nazorati tadbirlarining ta‘sir choralari bilan chegaralanish yetarli emasligini ko‘rsatmoqda. Tezkor tahlillarga muvofiq savdo, xizmat ko‘rsatish va umumiy ovqatlanish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan sub‘ektlardan soliq tushumlarini kamida ikki-uch baravarga oshirish rezervlari mavjud.

5. Ustav fondini shakllantirish, ulushini olib chiqish va katta hajmdagi aslida realizatsiya qilingan tovarlarni turli vajlar bilan hisobdan chiqarish kabi soliqdan qochish sxemalaridan foydalanish amaliyoti keng qo‘llanilmoqda.

Xulosa va takliflar

Yuqoridagilardan kelib chiqib, *keyingi 5 yillikda amalga oshiriladigan ustuvor islohotlar*

1. Soliq organlari faoliyatini xalqaro standartlar asosida raqamli transformatsiya qilishni davom ettirish. (beznes-jarayonlarini avtomatlashtirish, zamonaviy texnologiyalar asosida avtomatlashtirilgan qarorlarni qabul qilish, katta ma'lumotlar (Big Data) bilan ishlash, "Business Intelligence" analitik tizimni ishga tushirish);

2. Davlat xizmatchilaridan keyingi bosqichda, umumbelgilangan tarzda daromadlarni deklaratsiya qilish mexanizmlarini ishga tushirish va soliq qo'mitasi huzurida xalqaro tajribalar asosida Respublika deklaratsiya markazini tashkil etish;

3. Soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishni yangi bosqichga chiqarish, vazirliklar, qo'mitalar (bojxona, havo va transport, standartlash, investitsiya) va nazorat qiluvchi organlarda axborotlarni takroriy yig'ish, moliyaviy va inson resurslaridan samarali foydalanish maqsadida ma'lumotlarini bitta markazga jamlagan Soliq qo'mitasini Yagona axborotlar operatori deb belgilash;

4. Yirik soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish, QQS markazlashtirishning ijobiy tajribasini davom ettirgan holda:

Tadbirkorlik sub'ektlaridan ortiqcha mablag'larni undirish, ularning faoliyatiga asossiz aralashish kabi salbiy holatlarga barham berish maqsadida, Ma'lumotlarni qayta ishlash markazi huzurida barcha soliq to'lovchilarning shaxsiy kartochkalarini yuritishni markazlashtirgan Budjet bilan munosabatlarni boshqarish markazini tashkil etish;

5. Budjet tashkilotlari ma'murchiligini markazlashtirish;

Hududlararo soliq inspeksiyalarini tashkil etish orqali, iqtisodiy samarasiz inspeksiyalarni birlashtirish;

Hududlarda soliq to'lovchilarga eksterritorial tamoyili asosida xizmat ko'rsatishga o'tish;

Soliq turlari va hisobotlarini unifikatsiya qilish, soliqlarni soliq organlari hisoblash va soliq to'lovchi tomonidan tasdiqlash, jumladan soliq va statistika hisobotlarini yagona tarzda soliq organlariga topshirish tamoyillarini joriy etish.

Soliq bazasini aniqlashda bozor bahosiga o'tish;

Narxlarni shakllantirish, ustav jamg'armasini shakllantirish, tovarlarni hisobdan chiqarish, elektron savdo va to'lov tizimi va boshqa soliqdan qochish sxemalari, budjetga yo'qotishlar xavfini baholash va boshqarish tizimini joriy etish va soliq ma'murchiligining yangi mexanizmlarini amaliyotga kiritish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklida o'tkazilgan uchrashuvdagi nutqi.

<https://president.uz>

2. O'zbekiston Respublikasi soliq qo'mitasi ma'lumotlari. www.soliq.uz.